





“ЎЗБЕКИСТОННИ ТОП ЎН ТУРИСТИК ХУДУДЛАР  
ҚАТОРИГА КИРИТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ: БАРКАРОР  
РИВОЖЛАННИШ ИМКОННИЯТЛАРИ”  
мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий  
анжуман материаллари тўплами  
2020 йил 11-12 декабрь



“PROSPECTS FOR UZBEKISTAN'S ENTRY INTO  
THE TOP 10 TOURIST DESTINATIONS: SUSTAINABLE  
DEVELOPMENT OPPORTUNITIES”  
collection of abstracts  
December 11-12, 2020

“ПЕРСПЕКТИВЫ ВХОЖДЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В  
ДЕСЯТКУ ЛУЧШИХ ТУРИСТИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ:  
ВОЗМОЖНОСТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ”  
сборник тезисов  
11-12 декабря 2020 года



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
“СЕРВИС СОҲАСИ ИҚТИСОДИЁТИ” ВА “ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА  
ХЎЖАЛИГИ” КАФЕДРАЛАРИ**

**“ЎЗБЕКИСТОННИ ТОП ЎН ТУРИСТИК ҲУДУДЛАР  
ҚАТОРИГА КИРИТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ: БАРҚАРОР  
РИВОЖЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ”**  
мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжуман материаллари  
тўплами  
2020 йил 11-12 декабрь

**“PROSPECTS FOR UZBEKISTAN'S ENTRY INTO THE TOP 10  
TOURIST DESTINATIONS: SUSTAINABLE DEVELOPMENT  
OPPORTUNITIES”**  
collection of abstracts  
December 11-12, 2020

**“ПЕРСПЕКТИВЫ ВХОЖДЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В ДЕСЯТКУ  
ЛУЧШИХ ТУРИСТИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ:  
ВОЗМОЖНОСТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ”**  
сборник тезисов  
11-12 декабря 2020 года

“Дурдана” нашриёти  
Бухоро – 2020

тадбиркорлик соҳаларини қўллаб-қувватлашга, шаҳарлар ва туманлар доирасида мақсадли дастурларни ишлаб чиқиш ва тасдиқлашга қаратилиши мақсадга мувофиқ.

### **Адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон Фармони

2. Ахмедов Т.М.Стратегия комплексного и устойчивого развития регионов Узбекистана. В кн.: Модернизация национальной экономики Узбекистана. – Т.: АНРУз, 2011.с. 18-21

3. Хидирова Г.Р. Минтақани ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш механизмини такомиллаштириш йўллари/“Экономические механизмы формирования и использования интеллектуального капитала в системе инновационного сотрудничества образования, науки и производства” Сборник статьи ТГТУ г.Тошкент, 20 декабря 2018 года. 235-239.

## **JIZZAX VILOYATI EKOTURISTIK RESURSLARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI**

**Mirzayeva Aziza Zokir qizi  
Jizzax davlat pedagogika instituti magistranti**

*Annotatsiya:* Maqolada Jizzax viloyatidagi ekoturistik hududlarining flora va faunasini to`g`risida ma`lumotlar, turistlarni jalb qilish uchun qilinayotgan ishlar va amalga oshirilishi lozim bo`lgan takliflar keltirib o`tilgan, shuningdek, bu hududda ekoturistik marshrutlar tuzish borasida ham yo`nalishlar belgilangan.

*Kalit so`zlar:* ekoturizm, qo`riqxonalar, ekoturistik marshrutlar, tabiiy muhit.

Ekoturizm tabiiy turizm infrastrukturasining ajralmas qismi bo`lib, u faqat g‘oyagina emas, balki umumiylar turizmnning konkret turi, uning atrof-muhitga ta’siri turlicha (salbiy, neytral va ijobiy) bo`lishi mumkin.

Ekoturizm tushunchasi qo`riqxona zonalari va tabiat milliy bog’larning hozirgi zamонавий faoliyatida keng qo’llanilmoqda. Jahonda bu sayyohat turining jadal o’sishiga sabab faqat atrof muhitning ahvoli yomonlashishigina emas, balki mashhur hordiq chiqarish joylari-tog‘ bag‘ridagi kurortlar, iliq dengizlarning qirg‘oqlari, tekisliklar va o‘rmonzorlarning borgan sari ko‘proq o‘zlashtirilayotganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ekoturizm – tabiiy turizm bo`lib, tabiat muhitini hosil qilish va tushunishni o‘z ichiga oladi. Uning menejmenti shunday amalga oshiriladiki, natijada bu faoliyat ekologik, ijtimoiy va madaniy jihatdan barqaror bo`lib, “tabiiy muhit”, madaniy tarkiblarni, “ekologik barqarorlik” mahalliy aholi uchun tegishlicha daromadni va foydalanilayotgan resurslarning uzoq muddatli muhofaza qilinishini o‘z ichiga oladi.

Ekoturizmning boshqa turi kabi ekologik jihatdan barqaror bo`lishi, sayyohlarga zavq-shavq baxsh etishi va mahalliy aholiga daromad keltirishi lozim. Bundan tashqari, tabiiy va ijtimoiy madaniy muhitga “mos tushishi” kerak. “Mos tushishi” degan so‘zning ma’nosini shuki, bu faoliyatning uslubi, hajmi va xili landshaftning ko‘lami va xarakteriga, mahalliy aholining urf-odatlariga to‘g‘ri kelishi zarur.

Ekoturizmning maqsadi – hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun tabiatdan turistik yo`nalishda oqilona foydalanishdir. Ekoturizmning maqsadini amalga oshirish uchun “O’zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish Konsepsiysi” da ko’rsatilgan rejaviy dasturni keltirish kifoya qiladi. Bu konsepsiya respublikamizda ekologik turizmni rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish muhimligi alohida qayd qilingan:

✓ ekoturizm industriyasini shakllantirish uchun maxsus qonunlarni ishlab chiqish va ularning huquqiy mexanizmini yaratish;

- ✓ ekoturistik fan, ta'lim va amaliyotning nazariy asoslarini ishlab chiqish;
- ✓ aholining ekologik ongi va madaniyatini ekoturizm orqali o'stirish;
- ✓ ekoturizm yo'nalishidagi ta'lim va tarbiyani yo'lga qo'yish;
- ✓ ekoturizm bo'yicha mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash;
- ✓ ekoturistik ob'ektlarni har tomonlama baholash va ularning kadastrini olib borish;
- ✓ ekoturizm monitoringi va istiqbolini olib borishni yo'lga qo'yish;
- ✓ milliy davlat hududlarini ekoturizm bo'yicha rayonlashtirish;
- ✓ davlatlarning va xalqaro jamiyatning ekoturizmga oid taktik reja va strategik dasturlar va tadbirilarini ishlab chiqish;
- ✓ biologik xilma-xillikni saqlash.

Qayd qilingan vazifalarni bajarishda quyidagi ekoturistik tamoyillarni, ya'ni ekologik munosabatlarni turizm orqali tartibga solishga yo'naltirilgan qoidalarga qattiq, ma'suliyat bilan rioya qilish talab qilinadi:

- ✓ ekoturizmda tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish masalalarining ustivorligi;
- ✓ ekoturizmning tarixiy, madaniy va boshqa turizm turlari bilan bog'langanligi;
- ✓ turizm va servis sohasi yo'nalishidagi barcha ta'lim muassasalarida ekoturistik o'quv kiritilishining maqsadga muvofiqligi;
- ✓ mahalliy aholining ekologik ongi va madaniyatini o'stirishda ekoturizmni jalg qilish zaruriyati;
- ✓ tabiatdan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilishning mazmunini ekoturistik marshrutlarda aks ettirish;
- ✓ davlat, jamiyat, mahalliy boshqaruv idoralarining ekologik turizmdan manfaatdorligi;
- ✓ ekoturizmda ekologik ijtimoiy-iqtisodiy manfaatdorlikning yagonaligi;
- ✓ ekoturizmda milliy g'urur va iftixorni shakllantirishning zarurligi.

Qayd qilingan tamoyillarning bajarilishi O'zbekistonda ekologik turizmni jadal rivojlantirishning asoslarini ta'minlaydi.

Jizzax viloyati tog'li hududlariga Baxmal, Zomin, Forish, G'allaorol, Yangiobod tumanlari kiradi. Ularning umumiy yer maydoni 17,0 ming km kv, viloyat umumiy yer maydonining 80 foizi, aholisi 725,2 ming kishi bo'lib, viloyat umumiy aholisining 55 foizini tashkil etadi. Viloyatning ekoturistik maskanlari va ulardagi ekoturistik inshootlar:

Nurota davlat qo'riqxonasi -Tosh qoyalardagi bitiklar(petrogliflar), noyob hayvonlar va o'simliklar, endemik turlar, sharsharalar, buloqlar, Qizilqum arxari buyurtmaxonasi, Baxmal tumani o'rmon xo'jaligi- noyob xayvonlar va o'simliklar, endemik turlar, sharsharalar, buloqlar;

Zomin davlat qo'riqxonasi – qirqqiz, tosh kuyov, savat ko'targan kampir, tabiiy yodgorliklar, noyob hayvonlar va o'simliklar, endemik turlar, sharsharalar, buloqlar;

Zomin milliy bog'i – Boboyong'oq, Zomin sharsharasi, Sherbuloq, noyob hayvonlar va o'simliklar, endemik turlar, sharsharalar, buloqlar;

Zomin tumani o'rmon xo'jaligi – noyob hayvonlar va o'simliklar, endemik turlar, sharsharalar, buloqlar;

Forish tumani o'rmon xo'jaligi – Mojirum archasi(Sharq biotasi), Xonbandi to'g'oni, noyob hayvonlar va o'simliklar, endemik turlar, sharsharalar, buloqlar;

G'allaorol tumani o'rmon xo'jaligi – noyob hayvonlar va o'simliklar, endemik turlar, sharsharalar, buloqlar.

Jizzax vilovatdagi bu ekoturistik maskanlardan foydalanuvchi sayyoohlar va dam oluvchilarga qulaylik yaratish maqsadida Avtouy va Avtouy tirkamalarini shu marshurtlar yaqinida ijara ga berishni tashkil qilish, viloyatga keluvchi sayyoohlar va dam oluvchilar sonini oshirib, viloyat iqtisodiyotiga katta samara keltiradi.

Bunda ekomarshrutlar tuzishga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Ekoturistik marshrutlarni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- 1) ekoturizmni boshqa turizm turlari bilan birgalikda olib borish, ya’ni iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazardan ko’pchilik hollarda ekoturizmni tarixiy, diniy, ma’naviy-ma’rify turizm bilan birga olib borish, ekoturistik marshrutda bir nechta turizm turlari majmuasi bo’lishi samaralidir;
- 2) madaniylashtirilgan landshaftlarda agroekoturistik imkoniyatlarning yuqoriligini hisobga olgan holda ekoturistik marshrtlarga agroekoturistik landshaftlarni (suv omborlari, bog’lar, uzumzorlar, ekinzorlar) kiritish;
- 3) geotizimlarning antropogen, tabiiy va tabiiy-texnogen o’zgaruvchanlikni hisobga olish;
- 4) ekoturistik marshrtlardan kelgan foydaning ma’lum bir qismini ekoturistik ob’yektdagi tabiatni muhofaza qilish ishlariga qaratish lozim;
- 5) ekoturistik marshrtlarda noyob fauna va floraning, O’zbekiston “qizil kitobi”ga kiritilgan turlarning ko’payishi, oziqlanishiga xalaqit bermaslik, ularga ziyon yetishiga qarshi chora-tadbirlar, ogohlantirish belgilari, asosiy qoidalar bilan sayyohlarni tanishtirish va buning nazoratini olib borish;
- 6) ekoturistik marshrtlarda mahalliy aholining ekologik ongi va madaniyatini oshirishga ham qaratilgan tadbirlar, joylarda davra suhbatlari tashkil etish, noyob ekologik tizimlarni asrab avaylash masalasiga e’tibor qaratilsa maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ta’kidlaganlardan shuni xulosa qilish mumkinki, Jizzax viloyatida ekoturizmni rivojlantirishdan asosiy maqsad jamiyat ehtiyojlarini qondirish, xizmat ko`rsatish sifati va xajmini kengaytirgan xolda dunyo standartlari darajasida bozor iqtisodiy modelini ekoturizmga kirib kelishini ta’minlashdir. Jamiyat ehtiyoji turistlar talabini ichki va tashqi turizm xizmatlarini qondirish, shu bilan xizmat importiga bo’lgan xalqaro talabni o’rganish, aholining ekskursion xizmatlariga bo’lgan ehtiyojini qondirish bilan bog’liq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jahon turizm tashkilotining statistika ma’lumoti. [www.UNWTO.org](http://www.UNWTO.org)
2. “O’zbekiston Respublikasining atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanish holati” to’g’risida. Milliy -T 2015.
3. Azzamov X., Turizmning istiqbolli turi. Jamiyat gazetasi. 2014 yil 18 iyul
4. Тухлиев Н., Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития. Т 2006.
5. Hakimov Q.M. Adilova O.A. Jizzax viloyati geografiyasi. –T. 2015
6. Soliyev A.C, Usmonov M.R. Turizm geografiyasi.-Samarqand. 2012

Мирсаидов А.Б. Азизов Ш. Комилов С.Д. Расулов Г.Р. Азизов Р.	Развитие туризма в Таджикистане	146
Muxamedov O.L. Juraxuijayev D.D.	Jizzax viloyati ekoturistik imkoniyatlaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari	150
Исломова Р. А. Мамадалиева Н.А.	Экологик туризмнинг ўзига хос хусусиятлари ва унинг вилоят ижтимоий-иқтисодий ҳаётидаги аҳамияти	152
Ходжаева Д. Нуруллаева М.	«Туристическая деревня» - как фактор развития сельского туризма	154
Исломова Р.А.	Навоий вилоятида экологик туризмни ривожланиши	156
Бердикулова М.Т.	Қашқадарёда туризм: худудий иқтисодий ривожланиш ва истиқболли имкониятлар	158
Махмудов С. Х.	Гид таржимонлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш Самарқанд вилояти туристик салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг муҳим йўналиши сифатида	160
Махмудов С.Х.	Самарқанд вилояти баъзи тарихий-маданий туристик объектларнинг молиявий-иқтисодий кўрсаткичлари таҳлили	161
Хидирова Г.Р.	Ўзбекистонда туристик минтақаларни ривожланиши механизmlари	163
Mirzayeva A.Z.	Jizzax viloyati ekoturistik resurslaridan foydalanish yo'llari	166
<b>4-ШЎБА. 4-СЕКЦИЯ. 4-SECTION.</b>		
Khamidov O.X, Yakubjonova H.Yo.	Assessment of ecoturistic power of regions by method of ecoturism possibilities spectrum	170
Asatov L. Tadjieva S.U.	The role of marketing in the formation of the image of Bukhara destination	171
Фозилова Ф.К.	Этапы развития пищевой промышленности в мире и в Узбекистане	172
Ходжаева D.	Agroturizm - ichki turizmni rivojlantirish istiqboli sifatida	175
Мухамаджанов И.С.	Проблемы создания и внедрения эффективного механизма корпоративного управления в условиях модернизации экономики Узбекистана	176
Mukhamadzhanov Sh.	Prerequisites of economic integration of Southeast Asia countries	178
Navruz-zoda L.B.	O'zbekiston Respublikasining tashqi va ichki imidjini shakllantirishda Buxoro erkin turistik hudud brendining roli	180
Asadova A.O.	O'zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirishda xorijiy davlatlarning erkin turistik iqtisodiy zonalarni tashkil qilish tajribasini o'rganish	182
Рахматов Ю.Б. Курбонова С.Ш.	Экотуризм: ютуқлар, муаммолар, истиқболлари	186
<b>5-ШЎБА. 5-СЕКЦИЯ. 5- SECTION.</b>		
Тухлиев И.С.	Рақамли технологиялар асосида маркетинг қарорларидан самарали фойдаланиш хусусиятлари	193
Ким Т.В.	Роль и значение маркетинговых исследований в повышении конкурентоспособности туристского рынка	195
Солиева Г.А.	Наманган вилоятида туризм соҳасини ривожланишида маркетинг стратегияларидан фойдаланиш	197
Аллаёров Р.А.	Туризмни ривожланишида худудий маркетингни ўрни ва аҳамияти	199
Таирова М.М.	Роль логистики на рынке транспортировки и туристические услуги	202
Аминова Н.Б. Аллаёров Р.А.	Бренд худудий туризм маҳсулотининг маркетинг стратегиясини шакллантириш механизми сифатида	204
Shukurov S. I.	Promoting national tourism programs via digital marketing outlets in Uzbekistan	206
Qodirova N.R. Qodirova D.R.	Yangi bozorlarni egallashda turizm marketingi strategiyasining ahamiyati	207
Xamitov M.X.	Turizm sohasida mehmondo'stlik industriyasi tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari	210
Мадияров F. A. Гулямова Н. Г. Мадияров О. F.	Фарғона водийсида туризмни ривожланиши йўналишлари	213
Мўминов X. И. Джўраев А.	Маркетинг фаолияти асосида туристлар сонини ошириш имкониятлари	215